

AFSONAVIY SAN'ATKOR

Tursunboev Behzodbek Asqarali o'g'li

**O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Kompozitorlik va cholg'ulashtirish"
kafedrası jo'rnavozi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17430509>

Annotatsiya: Maqolada atoqli o'zbek bastakori va mohir g'ijjak ijrochisi Salohiddin To'xtasinovning hayoti va ijodiy faoliyati tahlil qilinadi. Unda bastakorning "Bahor" ansamblidagi mehnat faoliyati, milliy cholg'u ijrochiligidagi o'ziga xos uslubi, shuningdek, Andijon g'ijjak maktabi an'alarini davom ettirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, uning bastakorlik merosi, shogirdlari va o'zbek musiqa san'atining rivojiga qo'shgan hissasi ilmiy asosda tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: bastakor, g'ijjak, "Bahor" ansambli, Andijon g'ijjak maktabi, o'zbek musiqa, ijrochilik an'analari, cholg'u ijrochiligi.

Аннотация: В статье анализируются жизнь и творческая деятельность выдающегося узбекского композитора и виртуозного исполнителя на гижжаке Салохиддина Тухтасинова. Рассматриваются его трудовая деятельность в ансамбле "Бахор", индивидуальный исполнительский стиль, а также роль в продолжении традиций андижанской школы гижжак-исполнения. Кроме того, научно обосновывается его композиторское наследие, педагогическая деятельность и вклад в развитие узбекского музыкального искусства.

Ключевые слова: композитор, гижжак, ансамбль "Бахор", Андижанская школа гижжак-исполнения, узбекская музыка, исполнительские традиции, инструментальное искусство.

Annotation: The article analyzes the life and creative work of the prominent Uzbek composer and virtuoso ghijjak performer Salohiddin Tokhtasinov. It examines his professional activity in the "Bahor" Ensemble, his unique performance style, and his contribution to preserving and developing the traditions of the Andijan ghijjak school. The paper also provides a scholarly analysis of his compositional legacy, pedagogical achievements, and his contribution to the development of Uzbek musical art.

Keywords: composer, ghijjak, "Bahor" ensemble, Andijan ghijjak school, Uzbek music, performance traditions, instrumental art.

O'zbek musiqa san'ati tarixida o'ziga xos ijrochilik yo'liga ega bo'lgan, milliy musiqa merosini targ'ib etish yo'lida tinimsiz faoliyat olib borgan, milliy kuy va ashulalari orqali xalq qalbidan chuqur o'rin egallagan san'atkorlar doimo barhayotdir. Ular tomonidan yaratilgan musiqiy asarlar o'zbek musiqa madaniyatining bebaho durdonalariga aylangan.

Shunday ijodkorlar sirasida o'zining ko'p yillik ijodiy faoliyati bilan o'zbek musiqa san'ati taraqqiyotiga, bastakorlik ijodiyotining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan, O'zbekiston xalq artisti, atoqli sozanda (g'ijjakchi), bastakor, ustoz san'atkor hamda o'zbek bastakorlik ijodiyotida "polimonodiya" uslubining asoschisi Salohiddin To'xtasinov alohida e'tirofga loyiqdir.

Darhaqiqat, "polimonodiya" atamasi ilk bor o'zbek musiqashunosligiga O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, san'atshunoslik fanlari doktori, professor To'xtasinbek G'ofurbekov tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Musiqashunos olimning

taʼrifiga koʻra, *polimonodiya* — bu monodik bayonni polifoniya unsurlari yordamida boyitishga asoslangan musiqiy-ijodiy tamoyildir. Mazkur nazariy tamoyil oʻzbek anʼanaviy musiqasida XX asr oʻrtalaridan boshlab bastakorlik sanʼatining rivojlanish jarayonida, xususan, uslubiy imkoniyatlar kengayishi davrida shakllangan. Salohiddin Toʻxtasinov oʻz ijodiy faoliyatida ushbu yoʻnalishning amaliy ifodasini yaratib, anʼanaviy monodik ohangni zamonaviy kompozitsion tafakkur bilan uygʻunlashtirdi. U oʻzining ijrochilik va bastakorlik faoliyati orqali oʻzbek musiqa sanʼatida polimonodik ifoda uslubining asoschisi sifatida eʼtirof etiladi. Toʻxtasinov ijodida milliy kuy ohanglari bilan akademik kompozitsion tafakkurning sintezi mujassam boʻlib, u oʻzbek professional musiqasining yangi bosqichini ifodalaydi.

Bastakor Salohiddin Toʻxtasinov 1926-yil 24-oktabrda Andijon shahrida, Oʻzbekiston xalq artisti, bastakor Toʻxtasin Jalilov va Malohatxon aya xonadonida tavallud topgan [1, 82b]. Bolaligidan musiqiy ohanglar ogʻushida voyaga yetgan Salohiddin musiqa sanʼatiga oʻzgacha mehr qoʻygan. Yoshligidan musiqiy ijod jarayonida tarbiya olgan bu isteʼdodli ijodkor otasi tashkil etgan ijodiy jamoa bilan birgalikda akasi Xolxoʻja Toʻxtasinov va opasi Etiborxon Jalilova bilan teatr tomoshalariga muntazam qatnashgan.

Teatr — sanʼat va tarbiya oʻchogʻi sifatida yosh Toʻxtasinovning dunyoqarashi va estetik tafakkurini shakllantirishda muhim rol oʻynagan. Teatr sahnasida kuylangan qoʻshiqlar orqali insonning kundalik hayoti, orzu-umidlari va ruhiy kechinmalari musiqiy obrazlarda teran ifodasini topgan. Shu sababli, Salohiddin Toʻxtasinovning musiqaga boʻlgan qiziqishi aynan teatr muhitidan boshlangan deb aytish toʻgʻridir. U dastlab gʻijjak chalish sir-asrorlarini otasidan, keyinchalik esa mashhur bastakor va sozanda Gʻanijon Toshmatovdan oʻrgangan.

1937-yilda Moskvada boʻlib oʻtgan Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati oʻn kunligida (dekada) u sozanda sifatida ishtirok etib, oʻzbek musiqa sanʼati namunalarini tinglovchilarga taqdim etgan. 1940-yilda esa u bir guruh oʻzbek sanʼatkorlari bilan birgalikda Moskvada oʻtkazilgan Oliy oʻquv yurtlari olimpiadasida qatnashgan.

1951-yilda Toshkent davlat konservatoriyasining “Kompozitorlik va cholgʻulashtirish” kafedrasiga oʻqishga kirgan va u yerda bastakorlik sirlarini puxta oʻzlashtirgan. Oʻqish davrida Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida sozanda sifatida faoliyat yuritgan. Oʻsha davrda mazkur teatrdagi taniqli bastakor va sozandalardan Doni Zokirov, Gʻanijon Toshmatov, Komiljon Jabborov, Muhammadjon Mirzayev, Fahriddin Sodiqov, Saidjon Kalonov, Nabijon Hasanov, Xolxoʻja Toʻxtasinov, Dehqonboy Jalilov kabi sanʼatkorlar faoliyat olib borgan.

1954-yil yanvar oyida mashhur raqqosa va rejissyor Mukarrama Turgʻunboyevaning taklifiga binoan Salohiddin Toʻxtasinov “Bahor” Davlat ansamblida musiqa rahbari sifatida ish boshlagan. Uning ansamblidagi ijodiy faoliyati oʻn yildan ortiq davom etgan boʻlib, bu davrda u koʻplab kuy va qoʻshiqlar yaratgan hamda “Bahor” ansamblining xalqaro miqyosda tanilishida katta hissa qoʻshgan.

“Bahor” ansambli faoliyati davomida Amerika, Angliya, Fransiya, Hindiston, Pokiston, Malayziya, Eron, Afgʻoniston, Polsha, Chexoslovakiya hamda Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligiga aʼzo mamlakatlarda gastrol safarlarida boʻlib, oʻzbek musiqa sanʼati va madaniyatini jahon miqyosida targʻib etishda faol ishtirok etgan. 1957-yilning may oyida Oʻzbekiston SSR Madaniyat vazirining buyrugʻiga asosan Radioeshittirish bosh boshqarmasi qoshida Oʻzbek xalq cholgʻulari orkestrini tashkil etish haqidagi 179-sonli qaror eʼlon qilindi. Shu asosda Radioeshittirish bosh boshqarmasi oʻzining 47-sonli buyrugʻi bilan 1957-yil 1-maydan boshlab Salohiddin Toʻxtasinovni orkestra aʼzosi sifatida ishga qabul qildi [2, 31b/3, 31b].

O'zbek xalq cholg'ulari orkestri tarkibi (1957-yil 1-may holatiga ko'ra)

№	Ism, familiya	Lavozimi (cholg'u yoki vazifasi)
1	D. Zokirov	Bosh dirijyor
2	Yu. Rajabov	Badiiy rahbar
3	N. G'aybullayev	Dutor-kontrabas
4	R. Murodov	Dirijyor
5	S. To'xtasinov	G'ijjak
6	A. Akromov	G'ijjak-bas
7	T. Alimatov	Sato
8	S. Baqoyev	Buxoro rubobi
9	A. Boboxonov	Qashqar rubobi
10	A. Lutfullayev	Tanbur
11	I. Mallaev	Qashqar rubobi
12	Z. Obidov	Dutor
13	J. Saidaliev	Tanbur
14	Z. Sodiqov	G'ijjak
15	O'. Xudoyberganov	Urma cholg'ular
16	R. Ibrohimov	Doira
17	Sh. Hamdamov	Nog'ora
18	R. Sharafutdinov	Buxoro g'ijjagi
19	Sh. Shojalilov	Tanbur prima
20	M. Yunusov	Dutor

Salohiddin To'xtasinov ko'p yillar davomida bastakor va birinchi g'ijjakchi-sozanda sifatida faoliyat yuritgan [4, 30b]. 1964-yilda "Bahor" davlat ansamblining tashkil topganiga o'n yil to'lishi munosabati bilan u "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist" faxriy unvoni bilan taqdirlangan. U o'ziga xos ijro uslubi bilan boshqa ijrochilardan ajralib turgan. S.To'xtasinovning g'ijjak ijrochiligiga xos bo'lgan nafislik, his-tuyg'ularning chuqur musiqiy ifodasi, milliy ohanglarning tabiiy uyg'unligi uning ijrosida yaqqol namoyon bo'lgan. Xususan, u "Tanavor", "Nargistonim", "Xumor", "Girya", "Galdir" kabi kuylarni mahorat bilan ijro etgan. Ijodkor nafaqaga chiqqanidan so'ng ham ijoddan to'xtamagan. 2000-yilda u Mannon Uyg'ur nomidagi teatr va rassomchilik institutining "An'anaviy ashulachilik" kafedrasida o'qituvchi sifatida faoliyat yuritib, yosh avlodga mahorat saboqlarini bergan.

Salohiddin To'xtasinovning ijodiy faoliyatidagi yana bir jihat shundaki, u fotografiya bilan ham shug'ullangan va bir necha tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan foto lavhalarni tarix sahifalariga muhrlagan. Dehqonboy Jalilovning qizi **Zulfiya Nazarova (Jalilova)**ning xotiralarida ta'kidlanishicha, To'xtasinov bastakorlik va ijrochilik bilan bir qatorda, foto san'ati bilan ham jiddiy shug'ullangan. Uning bu faoliyati oddiy qiziqish emas, balki kasbiy kuzatuvchanlik va badiiy tafakkur ifodasi sifatida baholanishi mumkin.

Salohiddin To'xtasinovning bastakorlik va ijrochilik faoliyati o'zbek musiqa san'ati tarixida alohida o'rin tutadi. U Andijon g'ijjak ijrochilik maktabi hamda Vodiy bastakorlik maktabi an'analari davomchisi sifatida bir qator badiiy yetuk musiqiy asarlar yaratgan. To'xtasinov o'z ijrosidagi ko'plab asarlarni O'zbekiston radiosining oltin fondiga yozib qoldirgan. Uning g'ijjak ijrochiligi milliy cholg'u ijrochiligiga xos qadimiy "sur'nay yo'llari"ni

o'zida mujassam etgan bo'lib, bu an'ana Andijon g'ijak maktabining o'ziga xos uslubiy belgilaridan hisoblanadi. Bastakorlikda yaratgan asarlari esa o'zbek milliy musiqasining nodir namunalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Salohiddin To'xtasinovning ijodiy qalamiga mansub qo'shiqlardan ba'zilari:

- “Mehmon bo'lib keldim”, “Munis ona” (so'z muallifi: Yorqin Mirzo),
- “Farg'ona ruboisi” (so'z muallifi: Habibiy),
- “Afsonga emasman” (so'z muallifi: Barot Isroil),
- “Mehnatimdan”, “Dala manzaralari”, “Mehring Vatan” (so'z muallifi: H. Muhammad).

Shuningdek, u “Hayol”, “Bir gulim” kabi cholg'u asarlari muallifidir.

Bastakorning turmush o'rtoqi — O'zbekiston xalq artisti Rayhon To'raeva bo'lib, u qariyb 60 yil davomida Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida samarali ijod qilgan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, mohir g'ijakchi va yirik bastakor Salohiddin To'xtasinov 2003-yil 14-dekabrda vafot etgan. Uning ijro maktabi va san'atga bo'lgan fidoyiligi bugungi kunda ham shogirdlari tomonidan davom ettirilmoqda. Shogirdlari orasida Komunar va Qahramon Komilovlar, Salohiddin Azizboyev, Temur Mahmudov, Tohir Rajabiy, Shukurullo Lutfullayev, Shuhrat Yo'ldashev, Shuhrat Qayumov, Ahmadjon Dadayev, Xurriyat Isroilova, Gulbahor Erqulova, Mavluda Bo'ymatova kabi san'atkorlar ustozlariga sadoqat va faxr bilan o'z faoliyatlarini davom ettirib kelmoqdalar.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. G'.Xudoyev. G'ijak cholg'usi ijrochilik an'analari. Toshkent.: 2014-y.
2. Ўз.РМДА (ЦГА) хужжатлари. Ўзбекистон ССР Маданият Вазирлиги буйруқлари. №2487.Опись №1.
3. Ўзбекистон Республикаси Марказий давлат архиви, опись №1л. Ех.хр.31.
4. А.Ташматова. Дони Зокиров номидаги давлат халқ чолғулари оркестри. Монография. Тошкент.: 2015 й, 30б.